



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе .....	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмурадович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi .....	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari .....	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv .....	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari .....	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari .....	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari .....	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish .....	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari .....	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari .....	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari .....	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar .....	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar .....	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari .....	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili .....	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means .....	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati .....	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication .....	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi .....	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil .....	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli .....	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) .....	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish .....	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit .....	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari .....	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции .....	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов .....	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета .....	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



Otabekova Nargiza Avazbek qizi  
KIUT 1-kurs psixologiya (ijtimoiy psixologiya) yo'nalishi magistranti

## TALABALARDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISH QOBILIYATINING TUZILMASI VA PSIXOLOGIK KOMPONENTLARI (MOTIVATSION, KOGNITIV, IRODAVIY, EMOTSIONAL-REGULYATIV KOMPONENTLAR)

Ilmiy rahbar: Qayumov Baxtiyor Zakirjon o'g'li

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining psixologik mohiyati hamda uning asosiy tarkibiy komponentlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'z-o'zini boshqarishning motivatsion, kognitiv, irodaviy va emotsional-regulyativ komponentlarining talaba shaxsining rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil faoliyat yuritishi, maqsad qo'ya olishi, hissiyotlarini nazorat qilishi va stressli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishi kabi ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik omillari ochib berilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim muhitida o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar, refleksiv yondashuvlar va psixologik treninglarning samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** o'z-o'zini boshqarish, motivatsion komponent, kognitiv komponent, irodaviy komponent, emotsional-regulyativ komponent, refleksiya, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik, talaba shaxsi, psixologik rivojlanish.

**Abstract:** This article analyzes the psychological essence of students' self-management ability and its main structural components. The study highlights the role of motivational, cognitive, volitional, and emotional-regulatory components in the development of student personality. It also examines the psychological and pedagogical factors involved in developing students' abilities for independent activity, goal setting, emotional control, and effective decision-making in stressful situations. The article discusses the effectiveness of interactive methods, reflective approaches, and psychological training aimed at improving self-management skills in the modern educational environment. The research findings are significant for supporting students' personal and professional development in higher education institutions.

**Key words:** self-management, motivational component, cognitive component, volitional component, emotional-regulatory component, reflection, emotional intelligence, stress resistance, student personality, psychological development.

**Аннотация:** В данной статье анализируется психологическая сущность способности студентов к самоуправлению и её основные структурные компоненты. В исследовании раскрывается роль мотивационного, когнитивного, волевого и эмоционально-регулятивного компонентов в развитии личности студента. Также рассматриваются психолого-педагогические факторы формирования у студентов навыков самостоятельной деятельности, постановки целей, контроля эмоций и принятия эффективных решений в стрессовых ситуациях. В статье анализируется эффективность интерактивных методов, рефлексивных подходов и психологических тренингов, направленных на развитие навыков самоуправления в современной образовательной среде. Результаты исследования имеют важное значение для поддержки личностного и профессионального развития студентов в системе высшего образования.

**Ключевые слова:** самоуправление, мотивационный компонент, когнитивный компонент, волевой компонент, эмоционально-регулятивный компонент, рефлексия, эмоциональный интеллект, стрессоустойчивость, личность студента, психологическое развитие.



## KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabani nafaqat bilim va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, balki uning mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini boshqara olishi hamda psixologik barqarorligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashtirish, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va axborot oqimining keskin ortishi yoshlarning hayot faoliyatiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda talabani o'z-o'zini boshqarish qobiliyati uning muvaffaqiyatli ta'lim olishi, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini boshqarish shaxsning o'z maqsadlarini belgilashi, faoliyatini rejalashtirishi, hissiyotlari va xulq-atvorini nazorat qilishi hamda yuzaga kelgan muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu jarayon shaxsning ichki imkoniyatlari va tashqi muhit bilan o'zaro munosabati asosida shakllanadi. Psixologik nuqtayi nazardan o'z-o'zini boshqarish murakkab tizim bo'lib, uning tarkibida motivatsion, kognitiv, irodaviy va emotsional-regulyativ komponentlar o'zaro bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi talabani akademik faolligi, ijtimoiy kompetensiyasi va shaxsiy barqarorligini ta'minlaydi.

Talabalik davri inson hayotining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda mustaqil qaror qabul qilish, o'z faoliyatini nazorat qilish va shaxsiy mas'uliyat hissi shakllanadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim jarayonidagi yuqori yuklama, ijtimoiy moslashuv, kelajak kasbi bilan bog'liq noaniqliklar hamda psixologik bosim talabalarda stress, emotsional zo'riqish va motivatsion pasayish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Natijada ayrim talabalar vaqtni samarali boshqara olmaslik, maqsadga intilishning sustligi yoki hissiy beqarorlik kabi muammolarga duch keladi. Bu esa o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik tadqiqotlarda motivatsion komponent shaxsning ichki ehtiyojlari, maqsadlari va faoliyatga bo'lgan qiziqishini ifodalasa, kognitiv komponent o'z faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish va muammolarni anglash jarayonlari bilan bog'liqdir. Irodaviy komponent qiyinchiliklarni yenga olish, qat'iyat va maqsad sari intilishda namoyon bo'ladi. Emotsional-regulyativ komponent esa shaxsning hissiyotlarini boshqarishi, stressli vaziyatlarda ruhiy muvozanatni saqlay olishi hamda emotsional moslashuvchanligini anglatadi. Ushbu komponentlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi talabani psixologik yetukligini belgilovchi muhim mezonlardan biridir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar, refleksiv metodlar va psixologik treninglardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish, motivatsiyani qo'llab-quvvatlash va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligi ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning maqsadi talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va uning psixologik komponentlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, motivatsion, kognitiv, irodaviy hamda emotsional-regulyativ komponentlarning o'zaro bog'liqligini yoritishdan iborat. Shuningdek, talabalarda ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik omillar va samarali metodlarni aniqlash ham maqolaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va uning psixologik komponentlarini aniqlash hamda ushbu komponentlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida motivatsion, kognitiv, irodaviy va emotsional-regulyativ komponentlarning talaba shaxsining rivojlanishiga ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxs faoliyati nazariyasi, o'zini boshqarish konsepsiyasi, emotsional intellekt va refleksiv yondashuvlarga oid psixologik hamda pedagogik qarashlar tashkil etdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlarning kompleks uyg'unligidan foydalanildi. Nazariy bosqichda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, psixologik konsepsiyalar hamda pedagogik tadqiqotlar tahlil qilindi. Ilmiy manbalarni o'rganishda tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi. Bu esa o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining asosiy tarkibiy qismlarini ilmiy jihatdan aniqlash imkonini berdi. Empirik tadqiqot oliy ta'lim muassasasining turli fakultetlarida tahsil olayotgan 1–4-bosqich talabalari o'rtasida olib borildi.

Tadqiqotda jami 150 nafar talaba ishtirok etdi. Respondentlarni tanlashda jins, yosh, ta'lim yo'nalishi va akademik ko'rsatkichlar bo'yicha mutanosiblik tamoyiliga amal qilindi. Tadqiqotning obyektivligini ta'minlash

maqsadida turli ijtimoiy va akademik muhitdagi talabalar qamrab olindi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Psixologik kuzatish metodi** – talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligi, mustaqil qaror qabul qilishi, emosional reaksiyalari va stressli vaziyatlardagi xulq-atvorini o'rganish maqsadida qo'llanildi.
2. **So'rovnomasi metodi** – talabalarning o'z-o'zini boshqarish darajasi, motivatsiyasi, o'zini nazorat qilish va hissiy boshqaruv ko'nikmalarini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan anonim anketalar orqali amalga oshirildi.
3. **Psixodiagnostik metodlar** – motivatsion, kognitiv, irodaviy va emosional-regulyativ komponentlarni baholash maqsadida standartlashtirilgan psixologik testlardan foydalanildi. Jumladan, motivatsion yo'nalishni aniqlash uchun akademik motivatsiya metodikalari, emosional-regulyativ holatni o'rganish uchun stressga bardoshlilik va emosional intellekt testlari, irodaviy sifatlarni aniqlash uchun o'zini nazorat qilish va qat'iyatlilik diagnostikasi qo'llanildi.
4. **Suhbat metodi** – talabalarning ichki motivlari, o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati, emosional holati va o'zini boshqarishdagi qiyinchiliklarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida individual hamda guruhli suhbatlar tashkil etildi.
5. **Pedagogik tajriba metodi** – tadqiqot davomida talabalarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlari, refleksiv topshiriqlar va vaqtni boshqarish texnikalari amaliyotga joriy etildi hamda ularning samaradorligi baholandi.

Olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Jumladan, foizli tahlil, o'rtacha ko'rsatkichlarni aniqlash, taqqoslash hamda natijalarni diagrammatik sharhlash usullari qo'llanildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida respondentlarning anonimligi saqlandi va barcha ma'lumotlar ilmiy-etika tamoyillari asosida qayta ishlandi. Mazkur metodologik yondashuv talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining psixologik komponentlarini kompleks ravishda o'rganish hamda ularni rivojlantirishning samarali psixologik-pedagogik mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining motivatsion, kognitiv, irodaviy va emosional-regulyativ komponentlari bo'yicha olingan empirik ma'lumotlar statistik tahlil qilindi. Natijalar talabalarning o'z-o'zini boshqarish darajasi turlicha ekanligini va komponentlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, 150 nafar respondentning 38 foizida o'z-o'zini boshqarish darajasi yuqori, 44 foizida o'rta va 18 foizida past daraja qayd etildi. Bu holat talabalarning muayyan qismida faoliyatni rejalashtirish, hissiyotlarni boshqarish va maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlar yetarli darajada shakllanmaganligini anglatadi. Motivatsion komponent bo'yicha natijalar shuni ko'rsatdiki, 42 foiz talabada yuqori ichki motivatsiya, 40 foizida o'rtacha va 18 foizida past motivatsion yo'nalish mavjud. Past motivatsiyaga ega talabalar asosan o'qishga nisbatan barqaror qiziqishning yetishmasligi va qisqa muddatli maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan ajralib turdi. Kognitiv komponent tahlili natijalariga ko'ra, respondentlarning 46 foizi o'z faoliyatini samarali rejalashtirish va muammolarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega ekanligi aniqlandi. 39 foiz talaba o'rtacha darajada kognitiv nazoratga ega bo'lib, 15 foizida esa past ko'rsatkich qayd etildi. Bu guruhda vaqtni boshqarish va qaror qabul qilish jarayonida qiyinchiliklar kuzatildi.

Irodaviy komponent bo'yicha natijalar shuni ko'rsatdiki, 40 foiz talabada yuqori qat'iyat va maqsadga intilish mavjud, 35 foizida o'rtacha, 25 foizida esa past irodaviy barqarorlik kuzatildi. Past irodaviy ko'rsatkichga ega talabalar murakkab vaziyatlarda tez taslim bo'lish va faoliyatni oxiriga yetkazmaslik holatlari bilan ajralib turdi. Emosional-regulyativ komponent natijalari esa 33 foiz talabada yuqori emosional barqarorlik, 45 foizida o'rtacha va 22 foizida past darajani ko'rsatdi. Past ko'rsatkichga ega respondentlar stressli vaziyatlarda tez hissiy reaksiya berish, xavotir va emosional beqarorlikka moyillik bildirgan.

Tadqiqotning eksperimental bosqichida 70 nafar talaba maxsus trening dasturiga jalb qilindi. Dastur 2,5 oy davomida amalga oshirildi va unda o'z-o'zini boshqarish, stressni boshqarish, vaqtni rejalashtirish hamda refleksiya mashg'ulotlari qo'llanildi. Eksperimentdan keyingi natijalar sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi. Xususan, eksperimental guruhda o'z-o'zini boshqarish darajasi yuqori bo'lgan talabalar ulushi 38 foizdan 62 foizga oshdi, past daraja esa 18 foizdan 7 foizga kamaydi. Motivatsion komponent bo'yicha yuqori ko'rsatkich 42 foizdan 66 foizga yetdi. Kognitiv nazorat 46 foizdan 68 foizga, irodaviy barqarorlik esa 40 foizdan 63 foizga oshgani qayd etildi.

Emosional-regulyativ komponentda ham sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi: yuqori darajadagi emosional barqarorlik 33 foizdan 58 foizga oshdi, past daraja esa 22 foizdan 9 foizga tushdi. Bu natijalar trening va refleksiv metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, statistik tahlil natijalari talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining barcha komponentlari o'zaro bog'liq holda rivojlanishini va maxsus psixologik-pedagogik aralashuvlar ushbu jarayonni sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari talabalarda o'z-o'zini



boshqarish qobiliyati murakkab ko'p komponentli psixologik tizim ekanligini tasdiqladi. Olingan ma'lumotlar motivatsion, kognitiv, irodaviy va emotsional-regulyativ komponentlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanishini va ularning har biri talabani umumiy psixologik yetukligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ayniqsa, bir komponentdagi past daraja boshqa komponentlarning ham sust rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqotda aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, motivatsion komponent o'z-o'zini boshqarishning boshlang'ich va harakatlantiruvchi omili sifatida namoyon bo'ladi. Ichki motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar o'z faoliyatini yaxshiroq rejalashtiradi, maqsadga yo'naltirilgan xulq-atvorni namoyon qiladi va qiyinchiliklarga nisbatan bardoshli bo'ladi. Aksincha, motivatsiyasi past talabalar kognitiv va irodaviy jarayonlarda ham sustlik ko'rsatishi kuzatildi. Kognitiv komponent bo'yicha natijalar talabalarning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va rejalashtirish qobiliyati ularning akademik muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Kognitiv nazorati rivojlangan talabalar vaqtni samarali boshqarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishda yuqori natijalarni namoyon qilgan. Bu holat o'z-o'zini boshqarishning kognitiv asoslari ta'lim samaradorligi bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

Irodaviy komponent tahlili shuni ko'rsatdiki, qat'iyatlilik va maqsad sari intilish talabani murakkab vaziyatlarda o'z faoliyatini davom ettira olish qobiliyatini belgilaydi. Irodaviy barqarorligi yuqori bo'lgan talabalar stressli sharoitlarda ham o'z maqsadidan chekinmagan, topshiriqlarni yakuniga yetkazgan. Bu esa iroda sifatlarining o'z-o'zini boshqarish tizimidagi mustahkamlashtiruvchi rolini ko'rsatadi. Emotsional-regulyativ komponent esa talabani psixologik barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Emotsional barqarorlikka ega talabalar stressni yengish, hissiyotlarini boshqarish va ijtimoiy muhitga moslashishda ancha muvaffaqiyatli bo'lishdi. Past emotsional regulyatsiya esa tezkor emotsional reaksiyalar, xavotir va psixologik zo'riqishning ortishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar pedagogik treninglar va refleksiv metodlarning samaradorligini ham tasdiqladi. Eksperimental guruhda barcha komponentlar bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgani o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini maqsadli rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa ta'lim jarayonida maxsus psixologik dasturlarni joriy etish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, natijalar mavjud ilmiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlar bilan mos keladi: o'z-o'zini boshqarish shaxsning ichki resurslarini safarbar qilish, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish va hissiy muvozanatni saqlash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari ushbu nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqladi.

Biroq tadqiqot jarayonida ayrim cheklavlar ham kuzatildi. Xususan, talabalarning individual psixologik xususiyatlari turlicha ekanligi, tashqi stress omillarining farqliligi hamda qisqa muddatli eksperiment natijalarining uzoq muddatli barqarorligini to'liq baholash imkonining cheklanganligi qayd etildi. Shu sababli kelgusida uzoq muddatli longitudinal tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining har bir komponenti talaba shaxsining rivojlanishida muhim o'rin tutadi va ularni kompleks rivojlantirish oliy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi murakkab va ko'p komponentli psixologik tizim ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar motivatsion, kognitiv, irodaviy va emotsional-regulyativ komponentlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanishini va ularning har biri talabani shaxsiy hamda akademik rivojlanishida muhim rol o'ynashini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, motivatsion komponent o'z-o'zini boshqarishning asosiy harakatlantiruvchi omili bo'lib, talabani maqsadga yo'naltirilgan faoliyati va ichki faolligini belgilaydi. Kognitiv komponent esa faoliyatni rejalashtirish, tahlil qilish va ongli qaror qabul qilish jarayonlarining asosini tashkil etadi. Irodaviy komponent qiyinchiliklarga bardosh berish, qat'iyat va maqsad sari intilishni ta'minlasa, emotsional-regulyativ komponent hissiy muvozanatni saqlash va stressli vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini beradi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, maxsus psixologik-pedagogik treninglar, refleksiv mashg'ulotlar va motivatsion yondashuvlar talabalarda o'z-o'zini boshqarishning barcha komponentlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ayniqsa, stressni boshqarish, vaqtni rejalashtirish va emotsional nazorat bo'yicha ko'rsatkichlarning oshishi ushbu metodlarning samaradorligini tasdiqladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari talabalarda o'z-o'zini boshqarish darajasi ularning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy yetukligi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bu esa oliy ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi.

Kelgusida talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuv asosida trening dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ushbu yo'nalishda uzoq muddatli va keng qamrovli tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi. Umuman olganda, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati talaba shaxsining shakllanishi va rivojlanishida asosiy psixologik omillardan biri bo'lib, uni tizimli ravishda rivojlantirish oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Albert Bandura. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: Freeman, 1997.
2. Daniel Goleman. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
3. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
4. Boris Ananyev. Chelovek kak predmet poznaniya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2001.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2022.
7. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
8. Davletshin M. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2002.
9. Nishonova Z., Alimuhamedov S. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2017.
10. Ismoilova N. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
11. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2018.
12. To'xtaboyeva M. Talabalar psixologiyasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021.
13. Haydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
14. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.